



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 26-oktabr, payshanba,
127 (23.848)-son

**KUN
HIKMATI**

Birovga tobe
bo'lmalik uchun
mehnatdan
qochmaslik
kerak

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



KOREYS DELEGATSIYASI SAMARQANDDA

O'zbekiston va Janubiy Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari uzoq tarixga ega. Bu qadimiy Afrosiyob xarobalaridan topilgan surat orqali yana bir bor amaliy isbotini topgan. Ahamiyatli, aloqalar yildan yilga rivojlanib bormoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining Janubiy Koreyaga davlat tashrifi davomida parlamentlararo aloqalar ham yo'lga qo'yildi. Natijada ikki yurt qonun chiqaruvchi institutlari o'zaro tajriba almashib, Janubiy Koreya ko'magi bilan O'zbekistonda elektron parlament loyihasi amalga oshirilmoqda.

Joriy yilda bu borada navbatdagi qadamlar tashlandi. Chollanamdo provinsiyasi deputatlarining viloyatimizga tashrifi buning yaqqol isboti bo'ldi. Mehmonlar va xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari o'rtasidagi suhbat chog'ida ikki tomonlama aloqalar rivoji, mahalliy kengashlar faoliyati, deputatlar vakolatlari, ularning samarali faoliyat yuritishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar yuzasidan fikr almashildi.

KENGASH FAOLIYATI SHAFFOF

Chollanamdo provinsiyasi assambleyasi 2010-yilgacha 2 (ayrimlari 3, ba'zida esa 1,5) yil faoliyat olib borgan. Shundan so'ng deputatlar 4 yil muddatga saylangan.

Ma'lum bo'lishicha, deputatlar soni ham turli yillarda turlicha bo'lgan. Xususan, 2010-2014-yillarda faoliyat olib borgan 62 nafar assambleya a'zolarining 51 nafari viloyat, 5 nafari ta'lim va 6 nafari proporsional vakillik orqali saylangan. 2014-2018-yillar assambleyada 58 a'zo (52 nafari hududiy, 6 nafari proporsional vakil) bo'lgan. Keyingi 4 yillikda ham a'zolar shu taxlit tanlangan.

Ahamiyatli, provinsiya deputatlar kengashi — assambleya sayti orqali u bosib o'tgan yo'l haqida yetarlicha ma'lumot olish mumkin. Qaysi chaqiruvda deputatlar soni qancha bo'lgan, ular qanday saylangan va qancha vaqt faoliyat olib borgan, rais va o'rinbosarning shaxsigacha bilish imkoniyati yaratilgan.

Saytdagi ma'lumotlarga ko'ra, 60-yillar-gacha liberalar partiyasi assambleyada eng ko'p o'rinlarni olgan. Keyingi yillarda esa provinsiyaning 2 milliondan oshiqroq aholisi Koreya demokratiya partiyasiga ko'proq ishonch bildirgan. Mazkur siyosiy kuch 2018-yilda o'tkazilgan saylovlarda muxolifatga qariyb imkoniyat qoldirmagan — 58 ta

deputatlik o'rnidan 53 tasini egallagan.

O'RGANADIGAN JIHALAR KO'P

Assambleya raisi va uning ikki o'rinbosari deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Ularning faoliyat muddati 2 yil. 7 ta doimiy komissiya tashkil qilingan, yig'ilish qoida tariqasida bir yilda 2 marta o'tkazilishi belgilangan. Biroq farqli jihati, ularda navbatdan tashqari yig'ilish mahalliy davlat hokimiyati organi rahbarining yoki deputatlar uchdan biridan ko'prog'ining iltimosiga binoan chaqiriladi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, kelayotgan yilda bizda ham viloyat Kengashlari ijro hokimiyatlaridan to'la mustaqil faoliyat yuritadi. Demak, sessiya chaqirish borasida Chollanamdo tajribasi — hokimning sessiya chaqirish haqidagi iltimosi ham amaliyotga joriy qilinishi foydadan xoli bo'lmaydi.

Bundan tashqari, Janubiy Koreyadagi ushbu vakillik organi mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini monitoring va nazorat qilishi borasida yaxshigina huquqiy asos yaratilgan ekan. Misol uchun, Chollanamdo deputatlari bizdagi kabi hisobot tinglash va savollar berish bilan cheklanmaydi. Ular ma'muriy audit va tergov o'tkazish vakolatiga ega. Shuningdek, vakillik a'zolarining hujjatlarini talab qilish huquqi ham bor. Bularning barchasi assambleya xalqning kichik ovozlari hukumat va ta'lim ma'muriyatida aks etishini ta'minlashiga xizmat qiladi.

Bunga dadil tanqidlar bilan birga ijodiy muqobilarni taqdim qilish orqali erishamiz, — deydi Chollanamdo provinsiya assambleyasi raisi Seo Dong Vuk. — Samarqandga tashrif buyurib, bu yerdagi hamkasblarimiz faoliyati bilan yaqindan tanishayotganimizdan xursandmiz. Tashrifimiz ikki davlat o'rtasidagi do'stona aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonamiz.

Koreyalik mehmonlar kunning ikkinchi yarmida Samarqand shahridagi tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolarida bo'lishdi.

Y.MARQAYEV.

"YASHIL MAKON": KUZGI DARAXT EKISH RASMAN BOSHLANDI

Samarqand shahar Qorasuv massivida kecha "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida 1,5 ming tup manzarali daraxt ko'chati o'tqazildi.

Faxriylar, viloyat va shahar hokimligi vakillari, davlat tashkilotlari, korxonalar va muassasalar xodimlari, faol yoshlar ishtirok etgan tadbirda viloyat hokimining o'rinbosari Z.Rahmonova mazkur loyihani keng ko'lamda amalga oshirish lozimligini ta'kidladi.

Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bo'lim boshlig'i Suhrob Ahmedjonov 100 mingga yaqin aholi istiqomat qiladigan mazkur mas-kanda ko'chatlar bu yerning iqlim sharoitidan kelib chiqib ekilayotganini aytdi.

Ekiladigan manzarali va mevali daraxtlarni parvarishlash ishlari uch yil davomida birlashtirilgan tashkilot zimmasida bo'ladi. Endilikda har bir ekilgan ko'chatning egasi va javobgari bor.



Eslatib o'tamiz: "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kuzgi mavsumda viloyat miqyosida qariyb 400 ming gektar maydonda 30 turdan ortiq, o'zimizning iqlim sharoitimizga moslashgan 6 million 942 ming tup daraxt va buta ko'chatlari hamda qalamchalar ekiladi, tokzor hamda pista bog'lari yaratiladi. Viloyat hududida faoliyat ko'rsatayotgan sement ishlab chiqaruvchi korxonalar va ularga tutash bo'lgan hududlarda 93 gektar maydonda 16753 tup ko'chat ekilib, "Yashil belgilar"lar tashkil etiladi. 50 ta davlat tashkiloti tomonidan 50 sotixdan 2 gektargacha bo'lgan bog'lar barpo etiladi.

Husan ELTOYEV.

TAYINLOV



Oybek Hamrayev viloyat hokimining o'rinbosari — viloyat investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

O.Hamrayev ushbu tayinlovga qadar Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritgan.

Kecha viloyatimizda Ichki ishlar organlari xodimlari kuni keng nishonlandi

Rahmat MAMATOV,
viloyat IIB boshlig'i, polkovnik:

- Bu yorug' olamda ona Vatanni himoya qilishdan ortiq muqaddas burch, xalq osoyishtaligini qo'riqlashdan ham eziguroq yumush yo'qdir. Tinchlikni qadrlash, yurtni sevib-ardoqlash har bir inson uchun ham qarz, ham farzdir.

Vatanni sevmoq iymondandir. Vatani muhabbati barchamiz uchun birday aziz, birday ardoqli. Yurtimiz is-tiqbolli va tinchligini dillariga jo etgan osoyishtalik posbonlari borki, tonglarimiz osuda, kunlarimiz farovon.

Xalq ishonchini oqlash, Vatanimiz tinchligi, mam-lakatimiz osoyishtaligi yo'lida kechayu kunduz fidokorona mehnat qilayotgan sharaflil va mas'uliyatli kasb egalariga sog'lik, oilaviy baxt hamroh bo'lsin.



**OBUNA —
2024**

Qayum SOBIROV,
Jomboy tumani hokimi:

- Viloyatimizda bo'layotgan yangiliklar, o'zgarishlar, voqea-hodisalarni "Zarafshon" gazetasi o'qib, bilib olaman.

Shu bois 2024-yil uchun gazetaga obuna bo'ldim.

Sizni ham ushbu sevimli gazetaga obuna bo'lishga chaqiraman.

XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI

Shu yilning 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda xalqimiz yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatladi. Bu ko'p millatli xalqimizning birlamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining yorqin ifodasi bo'ldi.

Qomusimizning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar", degan norma davlat xizmatchilarining xalqimiz turmush darajasini muttasil oshirib borish hamda munosib sharoitlar yaratish uchun qanchalik mas'ul va javobgar ekanliklarini belgilaydi.

Prezidentimizning shu yil 8-mayda qabul qilingan "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so'zsiz va to'liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Mazkur hujjatda davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash uchun shaxsan javobgar hisoblanishi qayd etildi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

CHO'KKAN POL, YORILGAN, QIYSHAYGAN DEVORLARNI

Xalq
xizmatidagi
davlat
boshqaruvi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llaniladi. Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilik Konstitutsiyaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmaganligi vaji bilan qo'llashni rad etish qat'iy taqiqlandi.

Farmonda belgilangan talablar hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatimizdagi rahbar xodimlarning yangi Bosh qonun bo'yicha bilimlari 2023-yilning sentabr oyida sinovdan o'tkazildi.



40 ta savoldan iborat test sinovlarida viloyat hokimligi mas'ullari, viloyat boshqarma va idoralar rahbarlari va o'rinbosarlari hamda shaharlar va tumanlar hokimlari, ularning o'rinbosarlari va mas'ullari, jami 247 nafar mansabdor shaxs ishtirok etdi. Savollar asosan, yangi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga oid edi. Savollarning 86 foizdan ortig'iga to'g'ri javob berganlarning bilimlari "a" lo, 71-85 foiziga "yaxshi", 56-70 foizga "qoniqarli" va 56 foizdan past "qoniqarsiz" baholandi. Test sinovlari inson omilisiz, kompyuterda o'tkazildi va shu zahoti natijalar e'lon qilindi. Dastlabki natijalarga ko'ra, rahbarlarning 99 nafari testni "a" lo'ga topshirdi. 94 nafarining yangi tahrirdagi Konstitutsiya bo'yicha bilimlari "yaxshi", 41 nafarini esa "qoniqarli" baholandi. Afsuski, 10 nafar mas'ul "qoniqarsiz" baho oldi va qayta test topshirishiga to'g'ri keldi.

Xuddi shunday test sinovlari davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi bo'yicha ham o'tkazildi. Binobarin, strategiyadagi 100 ta maqsadda belgilangan ustuvor vazifalarni hayotga tatbiq etish uchun davlat xizmatchilari kompetentli, tashkilotchi, xalqning ishonchini qozongan bo'lishi, yuksak kasbiy madaniyatni egallashi, siyosiy, huquqiy va axloqiy saviyasi yuqori bo'lishi talab etiladi.

230 nafar mas'ul rahbarlar ishtirok etgan test natijalariga ko'ra, mas'ullarning 86 nafari "a" lo

baho oldi. 71 nafarining bilimlari "yaxshi", 56 nafarini esa "qoniqarli" baholandi.

Shuni ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda hududiy hokimlarning o'rinbosarlari va bir qator tashkilotlar rahbarlari faoliyatining maxsus mezonlar asosida baholab borilayotgani ularning mavjud qonunchilik va mamlakatdagi islohotlardan yetarli darajada xabardor bo'lishida muhim rol o'ynamoqda. Bu rahbarlar test sinovlarida ham yuqori natija qayd etdi.

Aslida, qaysi darajadagi - viloyat yoki shahar, tuman miqyosidagi rahbar bo'lsin, u mas'ul vazifada ishlayotgan, bir nechta xodimga bosh ekan, yetakchilik salohiyati bilan bir qatorda, bilim bilan ham ularga ibrat bo'lishi lozim. Rahbarning o'zi Konstitutsiya, davlat dasturlari va tegishli qonun hujjatlarini bilmasa, qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor bo'lmasa, qanday qilib xodimlardan buni talab qila oladi? Jamoadagi tartib-intizom, ish samaradorligi ham bunga bevosita bog'liq.

Bugungi kunda har bir davlat xizmatchisining asosiy faoliyat mezonlari bu xalqimizning orzu-umidlarini o'zi uchun yuksak maqsad deb bilib, ularni izchillik bilan ro'yobga chiqarishdan iborat.

23-24-oktabr kunlari Samarqandda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarining inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul idoralar rahbarlarining navbatdagi yig'ilishi davomida qardosh mamlakatlarining kadrlar siyosatiga mas'ullari bilan o'zaro fikr almashdik.

Ayni paytda bu davlatlarda ham fuqarolarni davlat xizmatiga qabul qilish shaffof tizim asosida amalga oshirilayotgani, ya'ni bilimlari, tashabbuskor, liderlik qobiliyatiga ega mutaxassislar bir necha bosqichli sinovlar asosida tanlab olinayotganini ilmiy asoslab berishdi. Hozir hech bir davlatda mutaxassisni diplom yoki bir necha yillik ish stajiga qarab lavozimga tayinlashmaydi. Har qanday rahbarlik vazifasiga qo'yishda nomzodning ma'lum bir mezonlarga javob berishi bilan birga, belgilangan sinovlardan o'tishi ham talab etiladi. Ochiq tanlovda esa bir necha nomzodlar orasidan eng munosibi tanlab olinadi.

Bizda ham Prezident huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilgach, davlat xizmatiga ishga qabul qilish va rahbarlik lavozimlariga tayinlashda shunday tizim yo'lga qo'yildi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, amalda bu yangi tizim o'zini oqlamoqda. Xalqaro tadbir esa ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rganish, yangi rejalarini belgilab olishni va ishni zamon talablari asosida tashkil etishni taqozo qiladi.

Behzod RAHMATULLAYEV,
viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari.

KIM TO'G'RILAYDI?



"Yuksalish" umummilliy harakati viloyat bo'linmasi tashabbusi bilan Taraqqiyot strategiyasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha viloyat jamoatchilik guruhi, Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'linmasi xodimlari hamkorligida Toyloq va Past Darg'om tumanlaridagi bir nechta ta'lim muassasalari binolarining zilzilabardoshlik darajasi o'rganildi.

Jumladan, Toyloq tumanining Bog'izog'on mahallasidagi 1-kash-hunar maktabining kiraverishi pol qismining beton qoplamasi cho'kkan, sport zalining bolalar kiyinish xonalari ta'mirlalab ahvolda - devorlar yorilgan, pol qismi beton qoplamalari ko'chgan, xona devoridan o'zbo'shimchalik bilan dud-bo'ron (dimoxod) uchun katta teshik ochilgan. Bu hech qanday qurilish standartiga to'g'ri kelmaydi.

Sport zalidagi jihozlarini saqlash xonasining yuqori qisimidagi, kiyinish xonasidagi tayanch ustunlar hamda zal yo'laklarining pol qismlarida yoriqlar paydo bo'lgan. Zilzila bo'lgan vaqtda bu yoriqlar binoning nafaqat qulab tushish xavfini oshi-

radi, balki maskandagi o'quvchi va o'qituvchilarning hayotini xavf ostida qoldiradi.

Tumanning Jumabozor mahallasida joylashgan 60-umumiy o'rta ta'lim maktabidagi holat ham ko'ngildagidek emas.

Ta'lim muassasasining devor qismlarida yoriqlar paydo bo'lgan. Binoning cho'kkanligi oqibatida devorlar qiyshaygan. Zilzila bo'lmasdan turib ham binoning qulab tushish ehtimoli katta. Muassasa faollar zalining tom qismidan suv o'tib, beton plitalarning bardoshliliygiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Uzunqishloq mahallasidagi 58-umumiy o'rta ta'lim maktabi sport anjomlari saqlanadigan xonaning tom qismi va devor o'rtasida yoriqlar paydo bo'lgan. Sport zalining tom qismidan suv ketgan, beton plitalarning orasi ochilib qolgan, zal binosining cho'kishi oqibatida kiyinish xonasi devorlarida yoriqlar paydo bo'lgan. Bulardan tashqari, muassasa binosining yo'laklari, oshxonasining pol qismlarida cho'kish holatlari ko'zga tashlanadi.

Past Darg'om tumanining Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi tekni-kumi binosiga kiraverishdagi devorlar cho'kkan, oshxona hamda yo'laklardagi yorilgan devorlar beton plitalardan ajralib qolgan. Binoning tashqi fasadida ham yirik yoriqlarni ko'rish mumkin. Faollar zalining tom qismidan suv o'tib, beton plitalarga ziyon yetkazgan.

Ta'lim maskani yong'in xavfsizligi talablariga javob bermaydi. Yong'in xavfsizligi burchaklari to'liq jihozlanmagan, o't o'chirish shittlari ochiq holda, bino ichki yo'laklarining pol qismi cho'kkan.

Shu kabi kamchiliklar tumanidagi 126-umumiy o'rta ta'lim maktabida ham kuzatildi. 31-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosining ichki yo'laklari devori cho'kkan, binoning tashqi fasadida katta yoriqlar paydo bo'lgan. Maskan sinfonalarida yoritish chiroqlari o'rnatilmagan, sport zalining tom qismidan suv o'tishi oqibatida beton plitalar yaroqsiz holatga kelyapti. Maktab hojatxonasi hamda hovli devorlarida yoriqlar borligiga guvoh bo'ldik.

Biz guvoh bo'lgan ayrim ta'lim muassasalari binolaridagi achinarli holatlar o'quvchilar va o'qituvchilar hayotiga xavf tug'dirishi mumkin. Shuni anglagan holda, yuqorida ta'kidlangan kamchiliklarni bartaraf etish masalalarini tegishli mutasaddilar jiddiy o'ylab ko'rish lozim.

E. HAMROYEV,

"Yuksalish" umummilliy harakati viloyat bo'linmasi rahbari.

Birga yashovchi yoki umumiy farzandli insonga

qilingan har qanday zulm jazolanadi

Oiladagi zo'ravonlikka guvoh bo'lgansiz, hech bo'lmaganda, bu haqda eshitgansiz. Bunda aksariyat hollarda ayollar va bolalar jabr ko'radi. Savollar tug'iladi - oiladagi zo'ravonliklar huquqiy jihatdan tartibga solinganmi, buning uchun javobgarlik bormi?

Bu borada asosan oiladagi jinoyat zo'ravonlik va oiladagi jinoyatlar tavsiflanadi. Xususan, oiladagi jinoyat zo'ravonlik deganda oilaning bir a'zosi tomonidan boshqa a'zosi nisbatan jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatish yoxud qo'llash bilan qo'rqitish orqali uning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa daxlsiz huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish orqali o'z hukmronligini o'tkazishga qaratilgan xatti-harakat yoki harakatsizlikni tushunish lozim.

Oiladagi jinoyatlar sifatida oilada uning bir a'zosi boshqa a'zolarga qarshi sodir etgan jinoyatlar tushuniladi. Bunda er-xotin o'rtasidagi munosabatlari yuridik jihatdan qonuniylashtirilgan yoki qonuniylashtirilmaganligi ahamiyatga ega emas.

Yashirib nima qildik, oilada har xil - g'arazgo'ylik, jinsiy va boshqa jinoyatlar sodir etiladi. Biroq ular orasida bir oila a'zosi boshqa oila a'zosi nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etadigan jinoyatlar ham bor.

Shu bois joriy yil 11-aprel kuni "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Maz-

kur hujjat asosida 5 ta kodeks va 11 ta qonunga, jumladan, Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartirishlar kiritilib, javobgarlik kuchaytirildi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks esa 59-2-modda bilan to'ldirilib, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutildi.

Xususlan, xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqni amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ajoylariga qasddan shikast yetkazish bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 10 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsni do'pposlash, ushbu shaxslarga sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab

bo'ladi.

Jinoyat kodeksi esa 126-1-modda bilan to'ldirilib, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bunda yuqorida qayd qilingan harakatlar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ham sodir etilgan bo'lsa, shuningdek, boshqarilgan jinoyat alomatlarini bo'lmasa, BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha miqdorda jarima yoki 160 soatdan 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning keyingi qismlari og'irlashtiruvchi holatlar uchun javobgarlikdan iborat. Misol uchun, xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish natijasida ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotishga yoxud biron a'zoning ishdan chiqishiga yoki uning funksiyalari tamoman yo'qolishiga, ruhiy holatning buzilishiga yoki sog'liqning boshqacha tarzda yomonlashuviga, umumiy mehnat qobiliyatining 33 foizdan kam bo'lmagan qismining yo'qolishiga yoki homilaning tushishiga yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo'lsa, 5 yildan 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Otabek NABIYEV,
viloyat sudi sudyasi.

E'tibor aholining roziligiga asos bo'ladi

Mamlakatimizda inson qadri oshib bormoqda. Buni mahallamizda amalga oshirilgan ishlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, joriy yilda mahallamizda ikkita yangi transformator, 42 ta beton ustun o'rnatildi. Haprin va Karmovul guzarlarida ikkita suv inshooti (artezian) ishga tushirildi. "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turuvchi nochor oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari berilib, ular holidan xabar olindi. Haprin guzarining 2 kilometrik ichki yo'llariga asfalt yotqizildi.

Chet elga ishlash uchun ketgan fuqarolar oilasiga borib, yaqinlari bilan suhbat uyushtirilmoqda. Oilalar totuvligini ta'minlash, to'y-mar'akalarning namunali va kamxarajat o'tishi mahalla oqsoqollari, faollarining muhim vazifasiga aylangan.

Yaqinda Prezidentimizning videoselektor yig'ilishida mahalla yetkiligini tashkil qilish hamda mahalla raislarini ortiqcha majlislariga chaqirmaslik haqida aytgan gaplari biz uchun ayni muddao bo'ldi. Davlatimiz rahbari oldimizga qo'ygan vazifalar har bir fuqaroga e'tibor berishni, ularning tinch-totuv yashashi yo'lida bundan buyon ham ibratli ishlarni amalga oshirishimiz lozimligini taqozo etadi.

O'ktam SATTOROV,
Nurobod tumanidagi Tegirmonboshi mahallasi raisi.

Tog'larga chiqsangiz, qiziq bir hodisa-ning guvohi bo'lasiz. Qattiq ovoz chiqarib birovni chaqirsangiz, ovozingiz o'lsiz aks sado berib, o'zingizga qaytadi. Tarixda ham xuddi shunday. Biror bir buyuk voqea vaqt o'tishi bilan aks sado beradi. Faqat farq shundaki, tog'lardagi aks sado so'niqroq jaranglaydi. Tarix aks sadosi esa aksincha, kuchli tarzda takrorlanadi. Masalan, Ikkinchi jahon urushidan Germaniya mag'lub bo'lib chiqdi. Uning bir qancha hududlarini g'olib davlatlar tortib olgan yetmaganidek, kontrbutsiya to'lashga va kamsituvchi shartnomalarni imzolashga majbur qilishdi. Aynan ana shu voqealar nemis millatchi fashizmi-ning kuchayishiga sabab bo'ldi. Buning nima bilan tugaganini hammamizga yaxshi ma'lum.

Yoki bo'lmasa, "sovuq urush"dagi mag'lubiyat alami bugungi kunda Ukrainada o'zining mash'um aks sadosini bermozda. Izzat-nafsi topalagan imperiya o'z jarohatiga begunoh odamlarning qonini malham qilmoqda. Qizig'i shundaki, tarix aks-sadosi ming-ming yillardan keyin ham odamlarni bezovta qilishi mumkin ekan. Tarixdan ma'lum, Yaqin Sharq zaminida arab va yahudiy xalqlari azaldan bir havodan nafas olib, bitta daryodan suv ichib yashagan. Ammo tarix va taqdir taqozosi bilan ular bir joydan ikkinchi joyga doimo ko'chib yurishgan. Ayniqsa, yahudiy xalqi Rim imperiyasi, undan oldingi va keyingi davrlarda ham taqdir sinovlari bilan ko'p yuzma-yuz bo'lgan.

Bulardan eng oxirigisi: ularning gitlerchi fashistlar tomonidan ommaviy qirg'in qilinishidir. Bu voqea jahon hamjamiyatini jabrdiyya yahudiy xalqiga yaxshiroq e'tibor bilan yondashishga undadi. Bu borada AQSH va sobiq SSSR boshqa mamlakatlar orasida yetakchi bo'lishdi. Ikki davlat o'rtasidagi kelishuvga asosan, Qrim yarim orolida alohida muxtor yahudiy respublikasini barpo etish haqidagi gap-so'zlar paydo bo'ldi. Ammo bunga sho'ro rahbariyatidagi ayrim kuchlar qarshi chiqishdi. Bu borada ularga boy-badavlat yahudiy sionistlarining maqsadi hamohang kelib, ushbu reja amalga oshmay qoldi. Allaqachon yerlarini arab zamindorlaridan mo'may pullar evaziga sotib olgan sionistlar Falastinda mustahkam o'rnatishga boshlagan. Ikkinchi jahon urushida jabr ko'rgan alamzada yahudiy xalqini qat'iyatdan foydalanib radikal millatchi yahudiyalar "va'da qilingan zamin"ni tezroq qo'lga kiritishni istab qolishdi. Ammo ularning muqaddas kitoblarini bo'yicha bu voqea keyinroq, ya'ni Iso payg'ambar qayta yerga tushganidan keyin sodir bo'lishi kerak edi. Shu sababli qanchalik paradokslar bo'lib tuyulmasin, ortodoksal yahudiy ruhoniylari boshdanoq Isroil davlatining barpo etilishiga qarshi bo'lishgan va hozir ham yahudiy uchun davlat tuzishga hali erta degan aqidalariga sobit turishibdi. Yaqinda ularning amerikalik tarafdorlari AQSH hukumatidan G'azodagi xunrezliklarni to'xtatishni talab qilib, Kapitoliy binosiga bostirib kirishdi.

Adolat yuzasidan shuni qayd etish kerakki, 1934-yilda sho'ro hukumatining maxsus qarori bilan Uzoq Sharqda Yahudiy milliy muxtor viloyati tashkil etilib, Oktabr to'ntarishidan avval Chor Rossiyasida ro'ishnoqlik ko'rmagan yahudiy xalqiga kichik vatanga ega bo'lish imkoniyati yaratib berilgani. 1945-yilda AQSHning o'sha paytdagi prezidenti Harri Trumen Falastinni tasarruf qilib turgan Buyuk Britaniya bosh vaziriga murojaat qilib, yuz ming nafar yahudiyning tarixiy vataniga ko'chib borishiga ruxsat so'radi. 1947-yilda esa Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan AQSH va sobiq SSSR rahbarlarining bosimi ostida Falastinni ikkiga - arab hamda yahudiy davlatlariga ajratish haqida qaror qabul qilindi. Shubhasiz, bunga barcha arab davlatlari qarshi chiqdi. Ammo BMTga a'zo davlatlarning ko'pchiligi ushbu qarorni yoqlab ovoz berdi.

Shundan keyin bu mintaqada sodir bo'lgan voqealar yaxshi ma'lum. 1948-1949-yillarda olib borilgan urushlar natijasida Isroil Falastinning yarmidan ko'prog hududini egallab oldi va milliondan ortiq mahalliy arab aholisi kindik qoni to'kilgan yerlardan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Bundan norozi bo'lgan oltita arab mamlakati yangi tug'ilgan yahudiy davlatini yo'qotishga urinib, harbiy harakatlar boshladi. Biroq kuchlar teng emasdi - Isroilning ortida qudratli G'arb davlatlari turardi. Bu janglardan keyin to'liq ustunlikka erishgan isroilliklar vatanini tark etishni istamagan aholiga o'zlari xohlaganidek muomala qila boshladilar. 1967-yilda sodir bo'lgan olti kunlik urushda falastinliklar va ular tomonida turgan arab davlatlari zamonaviy qurollangan Isroil armiyasidan batamom yengildi. Yana yangi-yangi hududlar boy berildi. O'shanda ham xalqaro hamjamiyat xuddi hozirgidek voqealarga kuchli ta'sir ko'rsatolmadi.

Shundan keyin jabrdiyya Falastin xalqiga kimlar yordam berishga urinib ko'rmadi deysiz... Birgina



↓ **Yaqin Sharq**

ARABLAR VA YAHUDIYLAR: TARIX AKS SADOSI

BMT bu borada yuzlab rezolyutsiyalar, qarorlar qabul qildi. Sobiq sho'rolar ittifoqi Yaqin Sharq masalasida xalqaro konferensiya o'tkazishga chaqira-chaqira o'zi ham yo'qlikka yuz tutdi.

Yaqin Sharqdagi bugungi vaziyatni keltirib chiqarigan turli omillar haqida aytimoqda. Birov buni Isroildagi ichki siyosiy kurash natijasi deb izohladi, yana biroq AQSH hukumatini Ukraina muammolaridan chalg'itish maqsadida uyushtirilgan mojaro demoqda. Aytish mumkin, har ikki taxminning ham jiddiy asoslari bor. Ma'lumki, Isroilda ko'p yillardan buyon hokimiyat uchun qattiq kurash davom etmoqda. Shu ma'noda ichki siyosiy muammolardan isroilliklarni chalg'itish uchun kichkina g'olibona urush juda zarur edi. Aks holda HAMAS jangarilarining Isroil davlati chegaralaridan to'siqsiz kirib kelishlarini boshqa bahona bilan izohlab bo'lmaydi. Qisqariq aytganda, bu mojaroning yuzaga kelishiga jahon siyosat maydonida o'yin qilayotgan tomonlarning manfaatlari hayron qolarli darajada hamohang kelib qoldi. Xalqaro rakursdan olib qaransa, bir vaqtlar Amerikaning Vetnam urushida zaiflashirish maqsadida arab-Isroil mojarosiga kerosin sepilgandi. Natijada ikki frontda jang qilish salohiyatini yo'qotgan AQSH Vetnam urushini to'xtatishga va yerdan sharmandalarcha chiqib ketishga majbur bo'lgandi.

O'rni kelganda shuni qayd etish kerakki, bu muamrolarning paydo bo'lishi uzoqqa borib taqaladi. O'tgan asrning boshlarida ulug' jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy Arabistonga sayohati davomida muqaddas Quddus shahriga borib, al-Aqso masjidini ziyorat qiladi va sayohat ta'sirida quyidagi satrlarni qog'oza tushiradi:

"...Ajoyib hollar. Bu harami muhtaram ichinda bir zamon aytib ayridur. Olami ruhoniyatga va nuroniy bir moziyga va osmonlarga ucharsan va besh daqiga so'ngra bu hollarni ko'rub, toshga aylanarsan, go'yoki bir biyoboni vahshatda tezash. Toqatim qolmadi, tavqif etdim (o'txtadim). Bir nimarsa berur umidi ila atrofimni o'n qadar katta va besh-olti mayda nazrxo'rlar oldi.

Dedim: "Xudo uchun munda yotgan anbiyo uchun so'zumni tinglangiz. O'zingizga ma'lum, bu harami muhtaramda Masjidi al-Aqso bo'lub, "Subhon al - azi asru..." oyati muning haqqiga nozil bo'lgandur. Bu maqomni muqaddas sha'niga hadislar, albatta, ma'lu-mingizdur. O'z nafsingiz uchun bu qadar zillati tam'ani qabul qilsiz va besh yuz qadamdagi hujrangizdan chiqib, zavvor (ziyoratchi)dan nazr olmoq uchun yugurub, man - imom, man - xatib, man - ansordan va sayyid... dersiz. Bu vayronalar va bu harami muhtaram ichindagi muzbala (axlat)larni ko'rmaysizmi? Ushbu bolalaringizdek axloqsiz bolalarni hech yerda ko'rmadim. Zavvor pul bermasa, so'kar, yahudiy der. Bu na holdur? Munday ketssa, amin bo'lingki, anqarabi haramni va arzi muqaddasni nasoro va yahud sizdan olur!..." (Mahmudxo'ja Behbudiy, "Talangang asarlar" 111,112-betlar, 1997 yil, T.: "Ma'naviyat" nashriyoti).

Behbudiy hazratlari bashorat qilganlaridek, oradan 40-50 yil o'tar-o'tmas qisqa vaqt ichida Falastin zabt etildi. Uning o'rnida arab va yahudiy davlatlari tashkil topishi lozim edi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, XX asr o'rtalarida mustaqil Isroil davlati barpo bo'ldi. Ammo

mana, oradan shuncha vaqt o'tishiga qaramasdan, arab davlatining tashkil etilishi nihoyatda qiyin kechmoqda. Buning natijasi o'laroq, u yerda vaziyat tobora chigallashmoqda.

Yaqin Sharqda sodir bo'layotgan keyingi voqealar bugun butun dunyoni jumbushga keltirmoqda. Bir paytlar falastinliklarga nisbatan qilingan zo'rvonlik va adolatsizliklar qonli aks sado bo'lib qaytmoqda. Aytish mumkin, HAMAS tashkilotini G'arb davlatlari xuddi Afg'onistonda tolibonni yo'q joydan paydo qilganlaridek o'zlari yuzaga keltirishdi.

Albatta, Isroil bugun har jihatdan arab mamlakatlardan ustun darajada ekanligi hech kimga sir emas. G'arb texnika va texnologiyalari bilan qurollangan zamonaviy Isroil armiyasi bir necha janglar natijasida falastinliklarga tegishli bo'lgan katta hududlarni egallab oldi. Yahudiylar davlati 1948-yilda BMT tomonidan belgilab berilgan sarhadlaridan bir necha barobar kattalashib ketdi. Yangi hududlar esa yuqorida aytganimizdek, falastinliklar asrlar davomida istiqomat qilib kelgan yerlar hisobiga kengaydi. O'z Vatanlarida sig'may qolgan arablar xorij mamlakatlarga hijrat qilishga mahkum etildi. Bularning hammasi vaqt o'tishi bilan ularda alamzadalik tuyg'usini kuchaytirishi tabiiy edi.

Yana bir omilni hisobga olish kerakki, mintaqada musulmon aholisi yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bu esa kam sonli yahudiy xalqini asta-sekin demografik raqobatda yutqazishini anglatadi. Hozircha Isroil davlati bu boradagi muammolarini chet ellardan ko'chib borayotgan aholi hisobidan hal qilmoqda. Ammo bu holat abadiy shunday bo'lib qolishini anglatmaydi.

Yaqin Sharqda vaziyatning bunday tus olishi dunyo miqyosida aksilyahudiy kayfiyatlarining kuchayishi-ga olib keldiki, bu omilni ham e'tibordan ozor chekkan yahudiy xalqiga xayrixoh bo'lgan odamlar buzor sionist-larning bosqinchi siyosatiga keskin norozilik bildirishmoqda. Bu esa shu paytgacha Isroilni har tomon-lama himoya qilib kelayotgan mamlakatlar xalqlarining ko'zqarashlarini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Demokratik tamoyillar ustuvor bo'lgan G'arb dunyosida bu xildagi kayfiyatlar e'tami kechmi hukumatlarga o'z ta'sirini o'tkazishi tayin.

Bu gaplardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Isroil ma'murlari o'z siyosatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishlari zarur. Ular zo'rvonlik va agressiya yo'li-dan emas, sulh va yaxshi qo'shniilik tamoyillariga amal qilib yashashlari kerak. Arab va yahudiy xalqlari azal-azaldan bir havodan nafas olib, bir daryodan suv ichib yashagan xalqlar hisoblanadi. Aytaylik, Isroil G'azoni qirg'in qilib nimaga erishadi? Dunyo miqyosida yahudiylarga nisbatan naftratini yanada kuchaytiradi, xolos. Hech qachon qonni qon bilan yuvi-b bo'lmaydi. Qolaversa, Isroilning xavfsizligini hech kim abadiy kafolatlab ko'rgan emas. Kuch va iqtidor ham bir kunmas bir kun so'nishi, orqadosh kuchlar zaif-lashib qolishi mumkin, ammo ikki xalq hamisha birga yonma-yon yashashga mahkum. Bas, shunday ekan, har ikki tomon uzoq kelajakni o'ylab, murosaga bori-shi zarur. Bu borada o'zga yo'l yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

Kunlar daqiqalarga qisqarmoqda

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar avvalo inson qadrini yuksaltirib, fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan. "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham bu ustuvor tamoyil etib belgilangan.

Bugun joylarda barcha darajadagi rahbarlarning sayyor qabullari o'tkazishi, fuqarolarning muammolari o'rganilishi va qonuniy yechim topish maqsadida hamkor tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatilayotgan, qolaversa, fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish elektron tartibga o'tkazilgan inson qadrini yuksaltirish yo'lidagi jiddiy qadamlardan sanaladi. Jumladan, notariat va FHDY organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, masofadan turib foydalanish ta'minlanmoqda.



Hozirda 7 turdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish, nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish eksterritorial tamoyili asosida amalga oshirib kelinmoqda. Eksterritorial tamoyili nima? Gap shundaki, ilgari fuqarolar ushbu soha-ga tegishli hujjatlarni faqat dalolatnoma yozuvi qayd etilgan FHDY bo'limiga borib amalga oshirardi. Endilikda fuqarolar bu masalalarda istalgan FHDY bo'limlariga murojaat etishlari mumkin.

Bundan tashqari, tug'ilganlikni qayd etish bilan bog'liq kompleks xizmatlar ko'rsatilmoqda. Ya'ni, bola tug'ilgani haqidagi ma'lumotlar ichki ishlar, maktabgacha ta'lim, sog'liqlik saqlash vazirligi, budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi axborot tizimlariga elektron tarzda yuborilmoqda. Bu fuqarolarning u tashkilot eshigidan bunisiga borishining oldini olmaytir. Shuningdek, nikohlanuvchi shaxslarning arizalari my.gov.uz tizimi orqali qabul qilinayotgani ham turli ovoragarchiliklarning oldini olmoqda.

Shuningdek, FHDY bo'limlaridan ma'lumot olish istagida bo'lgan fuqarolar 3 kundan 15 kungacha kutishi, shoshiliinch hujjat olish uchun ba'zida bir necha kun kerak bo'lardi. Sababi, arxiv ma'lumotlarini topish, ularni izlash fuqarolar va soha xodimlari uchun ham qator noqulayliklarni keltirib chiqarardi. Tizimda raqamlashtirish ishlari amalga oshirilgach, bitta ma'lumot olish uchun bor-yo'g'i 5-10 daqiqa vaqt sarflanmoqda. Qolaversa, boshqa viloyatda qayd etilgan hujjatlarni o'ziga yaqin hududda joylashgan FHDY bo'limlariga murojaat etish orqali olish imkoniyati yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi farmoniga asosan, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish xizmatlarini oson va qulay sharoitlarda ko'rsatish, tug'ilganlik holatlarini o'z vaqtida qayd etish va fuqarolarning ovoragarchiliklariga chek qo'yish maqsadida tug'ilganlik-tibbiyot muassasalari orqali qayd etish tartibi 2023-yil 1-yanvardan Toshkent shahrida, shu yil 1-iyundan boshlab respublika bo'ylab joriy etilishi FHDY bo'limlarida navbatlarning keskin kamayishi, tug'ilayotgan bolalarning o'z vaqtida qayd etilishiga olib kelmoqda.

Inobat BOBOQULOVA,
Samarqand shahar 1-FHDY bo'limi mudirasi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Kodirov Golibjonga (2023-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Djalilova Lolaga (2020-yil 25-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoq-

da. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Normuradov Allamuratga (2006-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Mardonova Malikaga (1999-yil 27-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Jivodyorova Rimma Aleksandrovnaga

(2023-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Tuxtamisheva Shohiga (2014-yil 20-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Kadirov Sanjar Abduraximovich va sotib oluvchi Axmadjonov Firdavs Rajabovich o'rtasida Samarqand shahri "Is-tiqlol" MFY, Taraqqiyot ko'chasi, 39-"B" uy, 24-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida 2023-yil 7-fevralda tasdiqlanib, Ksh 113691 SA blankada tuzilgan, 202301714000573 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Buyuk jadid xonadonida

Ismoilbek Gaspirali muzeyida Mahmudxo'ja Behbudiy dastxat yozgan kitob saqlanadi

Jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Ismoilbek Gaspirali 1851-yilning 8-mart kuni Qrimning Avjiko'y qishlog'ida tug'ilgan. 1914-yilning 11-sentabrda 63 yoshida Bog'chasa-roda vafot etgan. Qisqa umri davomida "Fikrda birlik, ishdida birlik, tilda birlik" g'oyasini ilgari surib, barcha turkiy xalqlarni birlashtirishni maqsad qilgan. Ismoilbek Gaspirali o'z g'oyalarini keng miqyosda tarqatish maqsadida "Tarjumon" gazetasini tashkil etgan. "Tarjumon" gazetasi Xitoy, Turkiya, Bolgariya, Misr, Fransiya, Shvetsiya, AQSH, shuningdek, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlariga keng tarqalgan.

Ismoilbek Gaspirali "Farangiston maktablari", "Darul-rohat musulmonlari", "Afrika maktablari", "Ayollar saltnati", "Arslon qiz", "Sharq qayg'usi", "Rusiya musulmonligi: musulmonning fikrlari, eslatmalari va kuzatuvlari", "Rusiya-Sharq kelishuvi. Fikrlar, eslatmalar va tilaklar" kabi roman, hikoya, qissa, esse muallifidir. Uning qalamiga mansub geografika, tarix, adabiyot, arifmetikaga oid darsliklar, "Xo'jai sub'yon" qo'llanmasi Turkiston jadid maktablarida o'qitilgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelib, jadidchilik nomi bilan shakllangan ma'rifatparvarlik harakati ko'p jihatdan Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bog'liq. Ma'rifat, matbuot, adabiyot va teatr, yangi usuldagi jadid maktablarining Turkistonda rivojlanishida Ismoilbek Gaspiralining xizmatlari yaxshi anglagan ziyolilar adibni ustoz deb bilganlar.

Ismoilbek Gaspirali faoliyatini ilmiy jihatdan o'rnatish, bu borada yangi ma'lumotlar to'plash maqsadida yaqinda Qrimda bo'ldim, taniqli jadid yashagan uyda ko'plab materiallar bilan tanishdim.



Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida mening milatim - qrim tatarlari O'zbekistonga surgun qilingan, - deydi Ismoilbek Gaspirali uy-muzeyi direktori Elmira Abibullayeva. Xalqim o'z Vatanimni tashlab, o'zga yurtga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. O'zbek xalqi bizning ota-bobolarimizni kutib olgan, uy bergan, issiq ovqatini, mehri darig tutmagan. Mening ota-onam Namangan tumanining Pop tumanida istiqomat qilgan, o'zim ham o'sha jannatmakon yurtda tugilib, voyaga yetganman. Qrim tatarlarida bir gap bor. Buni bizning ota-bobolarimiz doimiy ravishda takrorlab turishadi, biz esa o'z navbatida farzandlarimizga, o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazamiz. "O'zbekiston eli urush yillarida bizni o'z bag'riga oldi. Biz buni unutmasligimiz kerak!".

Ismoilbek Gaspiralining uy-muzeyida saqlanayotgan har bir eksponat uning faoliyatini, o'sha davr voqealari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Mahmudxo'ja Behbudiy Ismoilbek Gaspiralinig'oyat hurmat qilgan va bilan uchrashgan vaqtlari o'zining baxtiyor damlari ekanligini ta'kidlagan. Ayniqsa, Istanbulning Gulxona bog'ida ustoz bilan uchrashgani, shu paytda uning sog'lig'i yomon bo'lsa-da, Turkistondagi maktablar, maorif, ma'rifat,



noshirlik ishlari bilan qiziqqanligini yozib qoldirgan. Hujjatlarining guvohlik berishicha, Gaspirali Buxoro amirligi rus bosqinchilarining talafotidan qay holatda chiqishini tasavvur qilib, xavotir oladi. Chunki Ismoilbek Gaspirali Buxoro amiri huzurida bir necha marta bo'lib, davlat taraqqiyotida "usuli jadid" maktablarining ahamiyati haqida qizg'in suhbatlar olib borgan. Buning natijasida III darajali Buxoro "Oltin yulduzi ordeni" bilan taqdirlangan. Ushbu orden rasmi va hujjatlar uy-muzeyda saqlanmoqda.

I. Gaspirali Turkistonga qilgan safari taassurotlari asosida gazetada turkum maqolalar e'lon qilgan. Uning chunonchi, "Buxoro va Boqchasaroy", "Boqchasaroydan Toshkentga sayohat", "Marg'inoniy Burhoniddin. Olim", "Hidoya" ("Sharhiat") kitobining muallifi" (so'nggi maqola "Tarjumon" gazetasining to'rt sonida bosilgan) maqolalari Turkiston ziyolilari tomonidan qizg'in kutib olingan.

Ismoilbek Gaspirali uy-muzeyida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Muntaxabi jug'rofiya umumiy" darsligi mavjud. Darslikni muallifning o'zi dastxat yozib, Gaspiraligatqatqilgan. Darslikda O'rta Osiyo tabiati, geografiasiy, suv havzalari, ob-havosi, tuprog'i, tog'li hududlari, vodiylari, tabiiy boyliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Kitob 1905-yilda chop etilganligini hisobga olsak, unda turli geografik rasmlarning berilishi maqul va azovor. O'sha davrda kitobga rasm bosishning murakkabligini bugungi kun o'quvchisi anglamas kerak. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyning fors tilda yozilgan "Alifboi maktabi Islomiy" alifboisi ham mavjud. Darslik 1905-yilda Samarqanddagi Demurov matbaasida chop etilgan.

Ismoilbek Gaspirali uy-muzeyida mumtoz adabiyotimizga, jadidchilikka oid ko'plab kitoblar mavjud.

- Kitoblar soni 100 ga yaqin bo'lib, ular Sankt-Peterburg muzeyiga olib ketildi, - deydi Elmira Abibullayeva. - Biz 2017-yilda muzey tashkil etilganligining 100 yilligiga bag'ishlab, bu yerda saqlanayotgan barcha kitob va eksponatlar katalogini tuzib, nashr ettirdik.

Ismoilbek Gaspirali hayoti va faoliyatini kengroq tadqiq etish Turkiston jadidchilik harakati to'g'risidagi bilimlarimizni yanada boyitadi, tariximizning o'rganilmagan jihatlari aniqliklar kiritadi.

Dilafroz RAHMATOVA.

Mulohaza uchun mavzu

Kamtargina o'rtog'im bor. Yoshligida ham musichadek beozor, mo'min qobil yigit edi. Barchaga birdek, xoh yoshi katta bo'lsin, xoh kichik, sizlab murojaat qiladi. Hatto farzandlari va turmush o'rtog'ini ham sensiramaydi. Ba'zida do'stlar davrasida ayrim hazil-kash o'rtoqlar "Falonchi xotini bilan urushib qolsa ham sizlab so'kina kerak-a?", deb uning jig'iga tegmoqchi bo'ladi. Do'stim kulibgina, "Agar siz ham turmush o'rtog'ingizni sizlasangiz, oilada janjal ko'tarilmaydi va so'kishga majbur bo'lmasiz, farzandlaringiz ham bir-biriga sizlab murojaat qilishni o'rganadi", deydi.

Oiladan olmaganini boshqa joydan ololmaydi

Darhaqiqat, ko'pgina uka va singillar o'z opa va akalarga sensirab murojaat qilganiga guvoh bo'lganmiz. Onasini, hatto otasini ham sizlamaydigan bolalar ham uchraydi. Bu albatta, oiladagi muhitga bog'liq ekan. O'sha do'stimning endigina tili chiqqan farzandi ham hech kimni sensiramaydi. Jahlni chiqaradigan har qanday holat bo'lganda ham do'stimning og'zidan qo'pol so'z chiqqanini bilmayman. Aslida rahmatli otasi ham shunday inson bo'lgan. Farzandlari ham shu muhitda katta bo'lyapti.

Kunlarning birida uning hovlisida, so'rida ikkovlon suhbatlashib o'tirganimizda, darvoza tomondan 6 yashar o'g'li Ravshan yugurib kelib, dadasiga arz qildi:

- O'rtog'im meni so'kdi.

- Nega so'kadi, biror ayb ish qilgandirsizki, so'kkandir, - dedi unga dadasa.

- Yo'q, hech qanday ayb ish qilmadi, - deb suhbatga aralashdi bolaning ortidan kelgan boshqa bir o'rtog'i. - Futbol o'ynayotgandik, men bilmasdan turtib yubordim. U esa Ravshan deb o'ylab, bunga baqirib ketdi.

- So'kinish yaxshimas demadiglarimi? - dedim ularga qarab.

- Aytganmiz, u baribir so'kinaveradi-da! - dedi haligi bola va qo'shimcha qildi: - Ravshan, jo'ra, kechir! Uning nomidan uzr so'rayman. Mening aybim bilan so'kish eshitding. Yur, xafa bo'lma, o'ynaylik.

Men esa ataylab o'sha bolaning nima deb so'kkanini aytarmikan, deb ulardan so'radim.

- Aytolmayman, - dedi Ravshan.

- Ja qo'pol so'kinishmas, - dedi o'rtog'i kulimsirab.

- Qanaqa ekan? - dedim o'rtog'i aytisa kerak, degan o'y bilan unga qarab.

- Menam aytmayman-ey, - dedi u va bir oz jim turdi-da, ayyorona tirjayib so'zida davom etdi. -

Bosh harfini aytishim mumkin!

- Qani, bosh harfi nima ekan? - dedim.
- "B", - dedi-da, xato ish qilib, uyaliq qolganday tilini bir chiqarib qo'ydi. - Xullas, "e, b." bilan boshlanadigan so'kinishdan keyin "ko'zingga qarasang bo'lmaydimi?", deb baqirib ketdi. Unga "Ravshan-ni aybi yo'q, men turtib yubordim seni desam ham ishonmadi-da".

- Mayli, bora qolinglar! - dedi do'stim ularga darvozani ko'rsatib, - urishmasdan o'ynanglar, u bolaning otasi bilan o'zim gaplashaman.

Bolalar yugurib chiqib ketishdi.

- Do'stim, otasi bilan o'zim gaplashaman, deganingiz bilan gaplashmasligingizni bilaman, - dedim o'rtog'imga qarab jiddiy ohangda. - Ammo rostdan ham gaplashish kerak u bolaning otasi bilan. Men taniymanmi?

- Ha, taniysiz, - dedi o'rtog'im. - Ammo foydasi yo'q. U bolaning bobosiyam so'kong'ich.

Angladimki, o'sha odam men bilgan - so'kong'ich bobo. Har bir gapiga qo'pol so'z qo'shib gapiradigan bu odamning farzandlari ham otasining izidan ketgan. Endi so'kinib gapirish nevaralariga ham yuqayotgan ekan-da, deb o'ylanib qoldim.

Ayrim qishloqlarda bu bobo va uning farzandlariga o'xshash so'kong'ichlarni ko'p uchratganman. "Sening otang meni so'kkan, men seni so'kkan, sen esa farzandlarimni... Bu odat avloddan avlodga o'tadi, ukal!", deb katta ish bajarib qo'yganday g'o'ddayotgan haliyam uchrab turadi, afsuski. Qaniydi, davom etib kelayotgan shu yomon odatni qaysidir avlod to'xtatib qolsa...

Ushu uyasida ko'rganini qiladi, degan gap bejizga aytilmagan ekan. Agar biz farzandlarimizni ko'cha-ko'ya, maktabda va hatto oilada so'kinmaslikka chaqirsag-u, o'zimiz so'kinib gapirishni kanda qilmasak, bolalar aytganimizni emas, amalda ko'rsatganimizni bajarishi tabiiy.

To'liq SIDDIQOV.

HIKMAT

Odamning dardini, jamiyatning dardini yozgan odam yutadi.
Murod Muhammad DO'ST.

Tarbiyani o'zimizdan boshlashimiz kerak

Tarbiya murakkab jarayon, uning barcha qirralarini jamuljam qilishning qat'iy yo'li va yagona usuli yo'q. Boshqacha aytganda, tarbiya individual xususiyatga ega. Shaxsning fe'l-atvori, dunyoqarashi, aqliy, jismoniy imkoniyatlari hisobga olingan holda olib borilsagina, kutilgan natijani beradi.

Befarosat, andishasiz, maqtanchoq, mahmadona, og'ziga kelganini o'ylamay gapiraveradigan kimsalarni ko'rganlar "tarbiya ko'rmabdi-da", deb qo'yishadi. Ularning yetti pushini biladigan qariyalar "obbo, bobo-siga tortibdi-da", deya bosh chayqaydi. Darhaqiqat, yuksak insoniy fazilatlar ham, xudbinlik, kalondimog'lik, qo'rslik, so'kinib gapirish kabi yaramas odatlar ham qondan o'tadi. Shunday ekan, biz farzandlarimizni odobli, shirins'o'zli, kattaga hurmatli, kichikka izzatli, o'qigan, andishali inson bo'lishini istasak, tarbiyani o'zimizdan boshlashimiz kerak.

"Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan gap bor. Oilada munosabatlar o'zaro hurmat, axloq-odob negizida qurilgan bo'lsa, bu farzandlar dunyoqarashida ham ko'rinadi. Ayrim ota-onalar farzandlar oldida "hali kichkina, tushunmaydi", deb har xil no'jo'ya so'zlarni gapiraverishadi. Yoki odamlarni g'iybat qilishadi. Bola endi tetapoya qilayotgan bo'lsa-da, eshitgan gaplarini yaxshi eslab qol-

di. Murg'ak tasavvurida odamlarga nisbatan yomon fikrlar tug'ildi.

Ota-ona farzand uchun ibrat. Bolalar ulardan o'rnak oladi. Ularning o'zini tutishlari, gapirishlariga taqlid qilishadi. Sodda qilib aytganda, oilada er-xotin o'rtasida sharm-hayo pardasi ko'tarilmasligi lozim.

Tadqiqotlarga ko'ra, dunyoga keladigan bola homila rivojlanish jarayonidayoq tashqi ta'sir va ona ruyhatiga reaksiya bera boshlar ekan. Yoqimli musiqi, yaxshi gaplar, xotirjamlik inson sifatida shakllanayotgan murg'ak yuzida muayyimlik, mehribonlik hislarini uyog'otsa, ota-onaning janjallari, bezovtalik, asabiylil homila DNKsiga, ya'ni irsiy hujayrasiga o'tib, tug'ilgandan keyin xulq-atvorida namoyon bo'lar ekan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, farzandlarni dunyoga keltirib, ularga tarbiya beradigan ota-onaning o'zi tarbiyali bo'lishi lozim. Shunday tarbiya ko'rgan ota-onalarimiz ko'p. Ular dunyoga keltirib tarbiyalagan o'g'il-qizlar jamiyatimiz faxriga aylangan.

Xo'sh, yaxshi tarbiyachi bo'lish uchun inson o'zini qanday tarbiyalashi kerak?

Buning uchun shaxs kitob o'qishini, odamlar, tovarak-atrofnin kuzatib, to'g'ri xulosa chiqarishni o'rganishi lozim. Kitob hayotni, odamiylilni, yaxshi fazilatlarini tarbiyalaydi. Maksim Gorkiyning "Kitob o'qishdan to'xtagan kishi fikrlashdan to'xtaydi", degan gapida chuqur ma'no bor.

O'zimizda yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalovchi o'qishdan to'xtamaylik. Tog'aymurod SHOMURODOV.

Konspekt yozdirish davri o'tdi

Talabalar oliygohga juda katta maqsadlar, orzular bilan keladi. Bunga erishish, o'zining iqtidorini namoyish etib, yuksak marralarni zabt etishi uchun ular to'g'ri yo'l ko'rsatish, axborot emas, ilm berish lozim. Biroq kuzatuvlar hamon ayrim ustozlar ta'limda eskicha yondashuvlarni qo'llayotgani, talabaga bilim berish o'rniga asosiy e'tiborini ularning darslarni qoldirmasligi, belgilangan tartib-qoidalarni bajarishi, xalq tilida aytganda, "ramka"dan chiqmasligiga qaratayotganini ko'rsatmoqda. Aslida qanday bo'lishi kerak?

Oliy ta'lim muassasasida o'qituvchilar talabalarga shunchaki ma'lumotlar bazasini yetkazish bilan shug'ullanishi to'g'ri emas, ular talabani iqtidorini ro'yobga chiqarishi, ularni yangi loyihalarga yo'naltirishi, o'ziga ishonchini oshirishi kerak. Shulardan kelib chiqib, bugungi kun oliy ta'limda dars berayotgan o'qituvchi quyidagi talabalar javob berishi shart:

Birinchi, har bir darsning asosi kreativlikka, tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. O'tilayotgan mavzu biror maqola, tezis, kichik yangilik munda-rijasini yaratishga yo'naltirilishi, izlanishlar samaradorligiga erishilishiga qaratilishi lozim. Barcha talaba ham birdek maqola yozolmasligi, yangilik yaratolmasligi mumkin. Muhimi, harakat qilishda to'xtamaslik kerak va bu o'z samarasini beradi.

Ikkinchi, har bir darsda hech bo'limganda, mavzuga oid bitta yangi narsa ang-lanishi kerak. Masalan, adabiyot darsida ijodkorning qachon tug'ilib, qayerda o'qigani,



qaysi asarni qachon yozgani haqidagi ma'lumotlar birinchi o'ringa chiqmasligi, balki uning yozgan asaridagi bitta foydali hikmat, hayot uchun qadrlin qonuniyat anglanishi va kashf etilishi lozim.

Iqtisodiyot darslarida esa bank ishlari, kredit berish bilan bog'liq ma'lumotlar o'rniga bugungi kunda ushbu tizimni mamlakatimizda

qanday to'g'ri yo'lga qo'yish va rivojlantirish masalalari muammo tarzida o'rganilishi va hayotiy yechim topilishi kerak.

Mana shu yangiliklar, topilmalar natijasiga dars qiymatini belgilab beradi. Oliy ta'limdagi dars shunday tashkil etilsagina, uni samarali deb baholash mumkin. Oddiy qilib tushuntirganda, dars jarayoni hayotdagi muammolarning yechimi uchun xizmat qilmas ekan, bu jarayonni oliy ta'limga munosib deb hisoblash mumkin emas.

Demak, endi biz oliy ta'limdagi darslarni shartli uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. Oddiy dars - o'qituvchi mavjud ma'lumotlarni talabalarga beradi.
2. O'rta darajadagi dars - o'qituvchi mavjud ma'lumotlarni tushuntiradi.
3. Yuqori saviyadagi dars - o'qituvchi mavjud ma'lumotlar borasidagi fikrlarni tavsiya qiladi. Talabalarni o'ylashga, fikrlashga, munosabat bildirishga undaydi.

Afsuski, bugun ham oliy ta'limdagi aksariyat o'qituvchilar oldindan mavjud bilimlarni qayta ko'rib chiqish, nari borsa, tahlil qilish, konspekt yozdirish bilan cheklanmoqda. Ayni paytda bulardan butunlay voz kechib, yangi texnologiyalar, yondashuvlarga o'tish fursati yetdi.

M. HAZRATQULOV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 361 nuxxada chop etildi. Buyurtma 579. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamena ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A. SHERXOLOV.

Navbatchi:

T. SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B. ABDULLAYEV.



Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda